
QUVNOQ, CHAQQON VA KUCHLILAR BELLASHUVIDA MEZBON JAMOA G'OLIB BO'LDI

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish, o'quvchi-yoshlarni sportga keng jalb etish, ular o'rtasida do'stona aloqalarni mustahkamlash hamda jismonan sog'lom bo'lishlari, Vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash maqsadida har yili "Quvnoq startlar" sport musobaqasi o'tkazib kelinmoqda.

Mazkur musobaqaning respublika bosqichi bu yil Farg'ona shahridagi "Samo" sport majmuasida o'tkazildi. Bir hafta davom etgan bellashuvlarda yurtimizning barcha hududlaridan jamoalar ishtirok etdi. Qiziqarli va murosasiz o'tgan musobaqa yakunida Farg'ona viloyati (Toshloq tumani jamoasi) 1-o'rinni, Namangan viloyati o'quvchilari 2-o'rinni, qoraqalpog'istonlik va jizzaxlik o'quvchilar 3-o'rinni egalladilar. Barcha jamoalar tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

2023-08-22 08:01:11